

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tizimida
2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy
KOMPLEKS CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas’ullar
I. Aholining, shu jumladan statistika hisobotlarini topshiruvchi, statistika kuzatuvlarida ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish				
1	O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan Davlat dasturlari va boshqa qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirishga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil etish.	Aholi, tadbirkorlik subyektlari, jumladan, statistika hisobotlarini topshiruvchi respondentlar, statistika kuzatuvlarida ishtirok etuvchi subyektlar va tizim xodimlari ishtirokida davra suhbatlari, seminarlar, konferensiyalar, treninglar va boshqa tadbirlarni tashkil etish.	2022- yil davomida (har chorakda kamida bittadan)	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, D. Zakirov, hududiy statistika organlari
2	Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan ko‘rgazmali va tarqatma materiallar (plakatlar, bannerlar, bukletlar va boshqalar)ni tayyorlash va tarqatish.	1. Ko‘rgazmali materiallar (plakatlar, bannerlar, risolalar, bukletlar, infografikalar va boshqalar)ni tayyorlash. 2. Tayyorlangan materiallarni aholiga, tadbirkorlik subyektlari vakillariga, davlat statistika hisobotini topshiruvchi subyektlar vakillariga tarqatish.	Doimiy	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, D. Zakirov, Idoraviy komissiya, hududiy statistika organlari
3	Korrupsiyaning xavf-xatarlarini tahlil qilish asosida, aholining keng qatlamlarini xabardor qilish va bilimlarini oshirishda maqsadli tadbirlarni amalga oshirish.	Mavzuga oid audio, videoroliklar, bannerlar, plakatlar va innovatsion axborot-targ‘ibot materiallaridan foydalangan holda, fuqarolarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabat, korrupsiyaga qarshi kurashishning aniq xulqini shakllantirishga qaratilgan, korrupsiyaga qarshi kurashish borasida kompaniyalarni o‘tkazish.	2022- yil davomida alohida reja-jadval asosida	Z. Abduxamidov, U. Abdurasulov, Idoraviy komissiya, B. G‘oyibnazarov, hududiy statistika organlari
4	Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog‘ida keng axborot-	Ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog‘ida keng axborot-targ‘ibot ishlarini olib borishda O‘zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatish va ishlash.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, U. Abdurasulov, hududiy statistika

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
	targ'ibot ishlarini olib borish.			organlari
5	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat statistika organlari mansabdor shaxslari va xodimlarining huquqiy savodxonligi va huquqiy bilimlarini oshirishga qaratilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish.	Tizim rahbar va xodimlari tomonidan mansab vakolatlarini suiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik, korrupsiya holatlarini oldini olish, amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash maqsadida, ularga normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va ahamiyatini chuqur yetkazish bo'yicha seminar va davra suhbatlari tashkil etish.	2022- yil davomida, har chorakda	Z. Abduxamidov, V. To'xtayev, hududiy statistika organlari
6	Davlat statistika organlari xodimlarining odob-axloq qoidalariga rioya qilishlari, o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirish, yuklatilgan vazifa va majburiyatlarni bajarishda halollik, xolislik, beg'arazlik tamoyillariga rioya qilishlarini ta'minlashga hamda loqaydlik va boshqa salbiy holatlarga qat'iy chek qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.	1. Xodimlar o'rtasida odob-axloq qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish. 2. Odob-axloq qoidalarini tushuntirishga, xodimlarning o'z kasbiga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishga, halollik, xolislik, beg'arazlik tamoyillariga rioya qilish va salbiy holatlarga qat'iy chek qo'yish va ularning oldini olishga qaratilgan seminar, davra suhbatlari tashkil etish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Odob-axloq komissiyasi, hududiy statistika organlari
7	Alohida maqsadli guruhlarining (davlat xizmatchilari, tadbirkorlar, fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va boshqalar) korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi va tizimi haqida huquqiy bilimi va xabardorligini oshirish yuzasidan ahamiyatga ega bo'lgan amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Davlat organlari faoliyatining xususiyatlarini inobatga olgan holda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilish borasida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish. Korrupsiyaga qarshi kurashish va kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish masalalari bo'yicha maxsus materiallar (buklet, banner, plakatlar)ni yaratish va tarqatish.	2022- yil oktabr-noyabr oylarida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, D. Zakirov, hududiy statistika organlari
8	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida, shu jumladan xalqaro ekspertlar ishtirokida seminarlar, davra suhbatlari va konferensiyalar o'tkazishni nazarda tutadigan xalqaro mezonlar va ilg'or chet el tajribalarini joriy etish.	Xalqaro ekspertlar ishtirokida seminarlar, davra suhbatlari va konferensiyalar tashkil etish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, O. Mamadaliyev, A. Sultanov, Idoraviy komissiya
9	Davlat statistika qo'mitasi va hududiy statistika	Idoraviy komissiyalar sahifalarining samarali faoliyat	2022- yil	Z. Ziyayev,

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
	organlarining veb-saytlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyalarning faoliyati ochiqligini ta'minlash maqsadida ularning sahifalarini ochish va ularning samarali ishlashini ta'minlash.	yuritishini ta'minlash maqsadida quyidagilarni e'lon qilib borish: - korrupsiyaga qarshi tadbirlar haqida hisobot va ma'lumotlar; - korrupsiyaning tarqalishi va idrok etilishi haqida ijtimoiy va ilmiy tadqiqotlar natijalari; - ma'lumot, metodik va axborot materiallari; - korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni muhokama qilish uchun jamoatchilik bilan qayta aloqa mexanizmlari hamda jamoatchilik fikrini o'rganish natijalari.	davomida	SH. Odilov, Z. Abduxamidov, U. Abdurasulov, hududiy statistika organlari
10	Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish sohasida davlat statistika organlarining nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy sheriklikni yanada mustahkamlash.	Nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan kelishuvlar va shartnomalar tuzish, hamda ular doirasida o'zaro sheriklik imkoniyatlaridan keng foydalanish.	2022- yil avgust	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya, hududiy statistika organlari
II. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar				
11	O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuni talablarining ijrosi holatini o'rganish, statistika organlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash.	Qonun talablaridan kelib chiqqan holda statistika organlarining faoliyati ochiqligi va shaffofligini har 6 (olti) oyda bir martadan monitoring qilish va baholash.	2022- yil iyul	A. Sultanov, D. Zakirov, U. Abdurasulov, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya, hududiy statistika organlari
12	Davlat statistika qo'mitasi va uning quyi tizim tashkilotlarida moliya-xo'jalik faoliyatini tashkil etish yuzasidan nazoratni kuchaytirish.	1. Davlat statistika tizimida xodimlarga to'lanadigan oylik maoshlari hamda boshqa to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblanishi va to'lanishi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirish. 2. Davlat statistika organlarida moliya-xo'jalik faoliyatini tashkil etilishi, mablag'larning maqsadli	2021- yil 1-noyabrgacha	J. Shirinov, Z. Abduxamidov

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
		sarflanishi holatini joylarga chiqqan holda o'rganishni tashkil etish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rish.		
13	Davlat xizmatchilarining zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini baholab borish.	Davlat xizmatchilarining zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini kamida 1 (bir) yilda ikki martadan baholab borish, va uning yakunlari bo'yicha korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funktsiya va vakolatlarining ro'yxatini shakllantirish.	2022- yil 1- iyuldan boshlab	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, D. Zakirov, Idoraviy komissiya, Odob-axloq komissiyasi
14	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy tizimlar samaradorligini oshirish, shu jumladan: xizmat vazifalarini bajarishda xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi haqida xabar berish va ularni hal qilish masalalarini lozim darajada tartibga solish, shuningdek, ushbu majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlikni oshirish; davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy koordinatorlarning o'zaro hamkorligi; korrupsiyaga ko'proq moyil bo'lgan sohalari (yo'nalishlar)ni aniqlash; idoraviy chora-tadbirlarni amalga oshirish ustidan ichki nazorat mexanizmlarini kuchaytirish.	Davlat statistika qo'mitasining korrupsiyaga qarshi idoraviy hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda, tavsiyalari asosida va kelishilgan holda ishni tashkil etish.	2022- yil 1-noyabrgacha	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Z. Tolipova, Idoraviy komissiya, hududiy statistika organlari
15	Davlat statistika organlarida korrupsiya xavfiga duchor bo'lgan soha va yo'nalishlarni aniqlash, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikning ta'sirchan choralari ko'rish, ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni, shart-sharoitlarni yo'q qilish asosida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha zarur choralarni amalga	1. Davlat statistika organlari tomonidan korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rish. 2. Tizim xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'ymaslikning ta'sirchan choralari ko'rish asosida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha zarur tadbirlarni belgilash.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya, B. G'oyibnazarov, hududiy statistika organlari

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
	oshirish.			
16	Davlat statistika qo'mitasi mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab va xizmat vazifalarini bajarish sifatini va samaradorlik mezonlarini baholashni amalga oshirish.	Davlat statistika qo'mitasi tizimi mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab va xizmat vazifalarini bajarish sifatini baholash tizimini va standartlarini, samaradorlik mezonlarini belgilash reglamenti talablari asosida kamida yilda bir martadan baholash o'tkazish.	2022- yil dekabr	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya
17	Xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha, shu jumladan ilg'or ilmiy-texnik vositalarni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish yo'li bilan idoraviy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.	Davlat statistika qo'mitasi xodimlari o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha idoraviy nazoratni tashkil etish tartibini yanada takomillashtirish. Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar holatini veb-sayt orqali kuzatish tizimini yo'lga qo'yish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, F. Berdibayev, SH. Odilov
18	Xodimlar o'rtasida odob-axloq qoidalari va talablarini tushuntirish hamda ularga qat'iy rioya qilinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora tadbirlarni ishlab chiqish va bajarish.	2022-2023- yillarga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.	2022-yil iyul	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Z.Tolipova
19	Davlat statistika qo'mitasi tizimi xodimlari tomonidan odob-axloq qoidalariga amal qilinishi monitoringini o'tkazish, ushbu sohada qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish borasida takliflar tayyorlash.	Davlat statistika qo'mitasining Odob-axloq komissiyasi tomonidan tizim xodimlari odob-axloq qoidalariga amal qilinishi monitoringini o'tkazish va uning natijalarini Odob-axloq komissiyasi va Idoraviy komissiya yig'ilishlarida muhokama qilish.	2022- yil dekabr	Z. Abduxamidov, Z. Tolipova, V. To'xtayev
20	Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish (jumladan antikorrupsion ekspertizadan o'tkazish).	Davlat statistika organlarida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish (jumladan, antikorrupsion ekspertizadan o'tkazish).	2022- yil davomida	V. To'xtayev, Z. Abduxamidov, hududiy statistika organlari bosh yuriskonsultlari
21	Davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga, interaktiv davlat xizmatlarining ko'lamini yanada kengaytirishga va joriy qilishga hamda elektron hukumat to'g'risidagi qonunchilik talablariga	Statistika sohasida davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, interaktiv davlat xizmatlarining ko'lamini yanada kengaytirish va joriy etish hamda elektron hukumat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqlashtirish	2022- yil davomida	Z. Ziyayev, Z. Abduxamidov SH. Odilov, SH. Djanadilov, X. Jo'rayev

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
	muvoqlashtirishga qaratilgan o'rganishni o'tkazish va takliflar tayyorlash.	bo'yicha takliflar tayyorlash.		D. Zakirov N. Sheraliyev,
III. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish				
22	Davlat statistika organlari bilan jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlar sifatini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishonch telefonlari va Call-markazlari ("tez aloqa liniyalari") ish samaradorligini ta'minlash.	Davlat statistika organlari va jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlar sifatini yaxshilash, Davlat statistika organlaridagi barcha ishonch telefonlari va Call-markazlari faoliyati samaradorligini oshirish va uzluksiz faoliyat yuritishini ta'minlash, hamda kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqish, tahlil qilish va statistikasini yuritish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, tarmoq boshqarmalari, hududiy statistika organlari
23	Davlat statistika organlarida faoliyat yuritayotgan "ishonch telefonlar"ning ishlash samaradorligini monitoring qilish.	Davlat statistika organlarida faoliyat yuritayotgan "ishonch telefonlari"ning ishlash holatini tanlanma ravishda monitoring qilish va natijalarini Idoraviy komissiyaning yig'ilishlarida muhokama qilish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, tarmoq boshqarmalari, Idoraviy komissiya
24	So'rovlar, ijtimoiy va boshqa tadqiqotlar asosida korrupsiyaga qarshi kurashish targ'iboti va ta'limi bo'yicha chora-tadbirlar natijalari va ta'sirini muntazam ravishda baholash.	Davlat statistika organlari veb-saytlari orqali har chorakda aholi va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish va ularning natijalarini Idoraviy komissiya yig'ilishlarida muhokama qilib borish va natijalari bo'yicha tegishli qarorlar (chora-tadbirlar) qabul qilish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, , Idoraviy komissiya, hududiy statistika organlari
25	Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti tomonidan o'tkaziladigan malaka oshirish kurslariga kiritilgan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga doir maxsus o'quv darslarini samarali tashkil etish.	1. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida xodimlar tomonidan rioya qilinishi zarur bo'lgan xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar talablarini muntazam tushuntirib borish. 2. Dars jarayonlarini multimedia vositalari, slaydlar, tarqatma materiallardan keng foydalangan holda yuqori saviyada o'tkazish, shuningdek, o'quv materiallarini muntazam ravishda yangilab va takomillashtirib borilishini ta'minlash. 3. O'quv kurslari yakuni bo'yicha ishtirokchilar	2022- yil davomida	B. G'oyibnazarov, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya, hududiy statistika organlari

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
		bilimini maxsus test sinovlaridan o'tkazish orqali obyektiv baholab borish.		
26	Davlat statistika organlarining mas'ul xodimlari tomonidan ishga qabul qilinganidan so'ng hamda muayyan vaqt o'tganidan so'ng, kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini joriy etish.	Davlat statistika qo'mitasining Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institutining "Davlat statistika organlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturi"ga kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa yo'nalishlari bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslarini kiritish.	2022-yil 1 martdan	Z. Tolipova, D. Zakirov B. G'oyibnazarov, Z. Abduxamidov, Hududiy statistika organlari
27	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida, quyidagilarni nazarda tutadigan tadqiqotlarni tashkil qilish, jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o'rganish, shuningdek, ularni bartaraf etish takliflarini ishlab chiqish; korrupsiya darajasi, korrupsiyani idrok etish va shaxsiy tajribasi, shuningdek, davlat hokimiyati institutlariga ishonch va korrupsiyaga qarshi choralarning ta'siri darajasini baholash maqsadida jamoatchilik fikrini o'rganish.	Statistika sohasida korrupsiyaga moyil bo'lgan yo'nalishlarni aniqlash maqsadida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining shart-sharoitlari va sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etish takliflarini ishlab chiqish.	2022- yil iyun	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya, hududiy statistika organlari
IV. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralar, tadqiqotlar o'tkazish va xalqaro hamkorlik				
28	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirishda, qonun loyihalarini ishlab chiqilishida, qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etish.	1. Ishlab chiqilgan qonun va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ko'rib chiqish va takliflar tayyorlash. 2. Sohaga doir qonun hujjatlarini ishlab chiqishda zarur tahliliy statistik ma'lumotlarni so'rov bo'yicha taqdim etish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, D. Zakirov, V. To'xtayev, Z. Abduxamidov
29	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yetuk milliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda vazirlik va idoralarda "9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni"ga bag'ishlangan "Ochiq eshiklar kuni"ni o'tkazish.	Davlat statistika qo'mitasi tizimida Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yetuk milliy va xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda vazirlik va idoralarda "9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni"ga bag'ishlangan "Ochiq eshiklar kuni"ni o'tkazish.	2022- yil noyabr-dekabr	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, U. Abdurasulov Idoraviy komissiya,

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
				hududiy statistika organlari
30	Davlat statistika tizimi faoliyatini tartibga solishga qaratilgan qonunchilik va qonunosti hujjatlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi bo'yicha inventarizatsiyadan o'tkazish.	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarga davlat statistika tizimi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va qonunosti hujjatlarining muvofiqligi bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlash.	2022- yil davomida	A. Ikramov, V. To'xtayev, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya
31	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlari, chora-tadbirlar rejalari va sohaga doir boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarining samaradorligini muhokama va tahlil qilish, kelgusida ushbu sohada tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini oshirish bo'yicha zarur choralarini ko'rish.	1. Har chorak yakunlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalari bo'yicha monitoring o'tkazish, tahlil qilish. 2. Qo'mita va hududiy statistika organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha idoraviy komissiyalarining yig'ilishlarida hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar natijalarini muhokamasini tashkil etish hamda kelgusida amalga oshiriladigan zarur vazifalarni belgilab borish.	2022- yil davomida, har chorakda	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya, hududiy statistika organlari
32	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat statistika qo'mitasining 2023- yilga mo'ljallangan idoraviy chora-tadbirlar rejasini (dasturini) ishlab chiqish va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash.	Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat statistika qo'mitasining 2023- yilga mo'ljallangan idoraviy chora-tadbirlar rejasini (dasturini) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqish va tasdiqlash.	2022- yil dekabr	A. Ikramov, Z. Ziyayev, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya
33	Davlat statistika qo'mitasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish bo'yicha nazorat qilish.	Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzulishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarining mutanosibligini va yetarliligini nazorat qilish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya
34	Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish.	1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida qo'mitaga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish. 2. Davlat statistika qo'mitasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ISO37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga moslashtirish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, V. To'xtayev, Idoraviy komissiya

T/r	Chora-tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
35	Davlat statistika qo'mitasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat") hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning boshqa xalqaro vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish.	O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda, tavsiyalari asosida va kelishilgan holda tizimda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplayens-nazorat")ni yo'lga qo'yish hamda takomillashtirish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya
36	2022-2026- yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturining Davlat statistika qo'mitasi tizimida ijro etilishi bo'yicha axborotlarni har chorak yakuni bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha axborot va ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritib borish.	2022-2026- yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish Davlat dasturining Davlat statistika qo'mitasi tizimida ijro etilishi bo'yicha axborotlarni har chorak yakuni bo'yicha keyingi oynning 7 sanasigacha Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha axborot va ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritib borish.	2022- yil davomida	A. Ikramov, Z. Abduxamidov, Idoraviy komissiya